TABU VA EVFEMIZM TUSHUNCHASI VA UNING MULOQOTDAGI O‘RNI

Umurtosheva Nafosat
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabu va evfemizmning yuzaga kelishi, ulardan muloqotda o‘rinli foydalanish va ularning nutqiy sinonimlarini to‘g‘ri qo‘llash haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Evfemizm, tabu, sinonim, bo‘yoqdorlik, naql, vosita, saviya, rasmiy uslub, ma’nodoshlik.

Insonlar doimo o‘zgalar lisoniy va nutqiy vositalar bilan aloqada bo‘ladilar. Aloqa vositasining asosiy quroli til hisoblanadi. Til inson ongini yuksaltirib, fikrlashini teran qiladi. Evfemizm va tabu tildagi so‘z boyligini oshiradi va uni jozibador chiqishini taminlaydi. Biz nutqimizni jozibadorligini taminlashda evfemizmlardan ko‘p foydalanamiz. Chunki insonning so‘zlashish madaniyati uni jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. *Yaxshi gapga ilon inidan chiqar yomon gapga pichoq qinidan*, degan naql ham bejiz aytilmagan. Insonning shirinsuxanligi uning madaniyatini, saviyasini bildirib turadi. Zero yaxshi so‘z jon ozig‘idir degan so‘zlar ham xalqimiz tomonidan bekorga aytilmagan.

“Evfemizm” so‘zi yunonchadan olingan bo‘ib “Yeirpegsha” ya’ni yumshoq ifodalash degan ma’noni bildiradi. Tilimizdagi ba’zi qo‘pol so‘zlarning o‘rniga uning sinonimlaridan foydalanish evfemizm hisoblanadi. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo‘llaniladi. Shuningdek bu atama ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Misol uchun dunyo olimlaridan B.A.Larin, L.A.Bulaxoviskiy, C.Silver va boshqalar.Ingliz tilshunosi J.Neaman evfemizm tushunchasini keng o‘rgangan. Uning fikricha evfemizm o‘z navbatida lug‘at boyligini oshirishga va shu bilan birga so‘zlarning ma’nodoshligini vujudga keltirishda xizmat qiladi. O‘zbek tilida bu atama 1963-1964-yillarda yozilgan N.Ismatullayevning “Hozirgi obek tilida evfemizmlar” degan kitobida keng qamrab olingan. Unda evfemizm tushunchasining kelib chiqish tarixi, qo‘llanilish uslublari va turlari haqida keng ma’lumot aytib o‘tilgan. Misol uchun *o‘ldi so‘zi o‘rniga vafot etdi, dunyodan ko‘z yumdi, omonatini topshirdi*, *qazo qildi* deyish mumkin yoki, *bo‘g‘oz xotin o‘rniga og‘ir oyoq, yukli xotin*, *ikkiqat* kabi sinonimlardan foydalanish talab darjasida bo‘ladi. ‘Ra’noni egasiga topshirmaguncha qo‘ymadiganga o‘xshaydi” – dedi, Nigor oyim (A.Qodiriy “Mehrobdan chayon”) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan *erga bermoq* iborasi o‘niga egasiga topshirmoq shaklidagi evfemizm qo‘llangan.

Tabu atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak bu so‘z asli Polinezcha “Taqiqlash” degan ma’noni anglatadi. Bu atama ilk bor Polineziyada paydo bo‘lgan bo‘lib, u ingliz dengizchisi J.Kuk tomonidan Yevropaga olib kiritilgan. Aslida bu so‘z uzoq davrlardan beri insonlar orasida mavjud. Hatto uning yaratilish davri uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qadimgi ibtidoiy davrda odamlar ruhlar va jonlardan qo‘rqishganlar. Ularning nazarida bu narsalaning nomi tilga olinsa ularga kelib zarar yetkazadi degan tushunchalar ham mavjud bo‘lgan. Hozirda yurtimizning ba’zi vohalarida bu tushunchalar saqlanib qolgan. Bundan tashqari tabuning keng tarqalgan turlari mavjud. Musulmonchilikda ayollar o‘zlarining jufti halollarini birinch farzand nomi bilan chaqirishlari bunga misol bo‘la oladi. Ya’ni bu ayollarning turmush o‘rtog‘lariga bo‘lgan hurmatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tabu va evfemizm tilimizni boyitishda hamda bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘lashda yordam beruvchi omillardan biri. Evfemizm va tabu nima? degan savolni berishdan oldin uning tub ma’nosini anglashimiz lozim. Yuqorida aytilganidek ular so‘z boyligimizni va jozibadorligini oshirishda yetakchilik qiladi. Hozirda bunday atamallar asosan yozuvchi, shoirlarimizning asarlarida ko‘proq uchratishimiz mumkin. Bugungi kun yoshlaridan ko‘p kitob o‘qishi bejizga talab qilinmayapti. Chunki bugungi kunda yoshlarning so‘zlashish madaniyatini

oshirish birinchi o‘rinda turadi. Shunday ekan hozirgi yoshlarga so‘zlashish madaniyatini yoshligidanoq singdirish siz-u bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ibrohim Yo‘ldoshev, O‘lmas Sharipov “Tilshunoslik asoslari” o‘quv qo‘lanma “Iqtisod moliya” 2007 85-92-betlar
2.Islomov.D “Zamonaviy ilmiy izlanishlar” kitobi II bob 132 bet
3. Davronova Gulrux ilmiy nazariyasi Ilm .uz sayti.

